



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

ekanligini tasdiqlagan holda bu jarayonni keng ma'noda tushunilishi deganda grammatik birliklarning ham leksemalashuvga tortilishini ta'kidlaydi. Va ilmiy adabiyotlardagi bu bo'yicha qisqa mulohazalarni bayon qiladi. Dissertatsiyasining «*Leksemalashuv nutqiy hodisa sifatida*» nomli to'rtinchi bo'limida neologizmlarning ham leksemalashuv bosqichidan o'tishini aytadi ammo qisqacha nazariy qarshlari bilan cheklanadi, misollar bilan izohlamaydi.

Ko'rinib turibdiki, yuqorida qayd etilgan terminlar faqatgina so'z birikmalari, soddaga gaplarning lug'aviy birlikka aylanishini emas "so'z+qo'shimcha"ning soddalashishi va tadqiqot obyektimiz bo'lgan neologizmlarning barqaror lisoniy birligimizga aylanishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi. Aslida leksemalashuv bosqichidagi har bir so'z neologizmdir. Ba'zilar sinxronik yuz bersa ba'zilar diaxronik bosqichni o'taydi. Lisoniylashuv yuqorida ma'nodosh sifatida ko'rsatilgan tushunchalarga nisbatan biroz kengroq (jarayon) ya'ni leksik neologizmlarning leksemalashish bilan birga leksemaning yangi nutqiy hosila ma'nosining/semantik neologizmning lisonga tomon siljishi – sememalashuv va yangi nutqiy birikmalarning frazemalashuv jarayonini ham ifodalaydi.

Neologizmlar muayyan tilning adabiy qatlami birligiga aylanguncha bir qator bosqichlarni bosib o'tadi. Olimlar neologizm uchta asosiy bosqichdan o'tishini aytadilar: **ixtiro, sinov va barqarorlik**. Dastlab, ixtiro qilingan so'zlar faqat maxsus doiradagi kishilar tomonidan taklif qilinadi, ya'ni har qanday realiya, predmet yoki hodisaning nominativ faoliyatida individ bevosita ishtirok etadi. Mazkur nominativ faoliyat tuzilmasida individning predmet yoki realiya haqidagi shaxsiy bilimining o'zaro bog'liqligi, ya'ni adresantning predmet va hodisaga oid individual semantik vazifasi mavjud bo'ladi. Demak, yangi so'zni yaratuvchi voqelikni individuallashtirishga intiladi. Keyinchalik, u kengroq doiradagi kishilar nutqida qo'llanishni boshlaydi hamda yangi so'z sotsializatsiya jarayonining bir nechta bosqichlaridan, ya'ni til egalarining keng ommasi tomonidan so'z qabul qilinish jarayonidan o'tadi. Ammo jamiyatning barcha qatlamlaridagi kishilar tomonidan qabul qilinishi uchun u ma'qullangan, tasdiqlangan holda barqarorlashishi va lug'atlarda o'z o'rnini egallashi kerak. Bu esa til egalarining yangi so'zni adekvat qo'llash ko'nikmalarini egallashi, ya'ni til egalari tomonidan kommunikativ-pragmatik kompetentsiyani egallash jarayoni orqali tilda yangi so'z qayd etilishi kuzatiladi. Demak u barqarorlashib til mulkiga (lisoniy birlikka) aylanguncha leksemalashuv jarayonini boshdan kechiradi. Neologizmlarning leksemalashuv jarayonini qachon yakun topgani, ya'ni qachon neologik qatlamni tark etganini aniqlash juda mushkul. Bunday vaziyatlarda sohalar va shaxslar maydoni muhim. Bunda vaqt ahamiyatsiz. A.Smurnitskiy ham neologizmlarning hosil bo'lishi haqida an'anaviy ravishda voqelik obyektining "neologizatsiya zanjiri"ni individ →

sotsializatsiya → leksemalashuv tarzida yuzaga kelishini ta'kidlaydi (Смирницкий А.И., 1956, С. 214.).

Leksikalizatsiya hodisasini tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganilishi haqida turlicha mulohazalar mavjud. Uning tor doiradagi o'rganilishi va ta'riflariga asoslanib, bir tomon grammatika yana bir tomon leksikologiya bo'limiga taalluqli deyishadi. Xolmuhammedov esa "... leksemalashuvni grammatikaga mansub deb hisoblaganda bu jarayonning sodir bo'lishida tildagi ikki yoki undan ortiq elementning grammatik aloqasi, leksikologiyaga aloqador deyilganda hosila ma'noning leksemaga tengligi nazarda tutiladi. Ammo ularning ikkalasi ham leksemalashuv hodisasining mohiyatini to'la ochib bera olmaydi, negaki u tom ma'noda so'z yasalishidir" (Холмухамедов Б.Ф., 2020, 56-бет) deya izohlab ketadi. Ammo leksikalizatiyaga oid qarashlarni umumlashtirgan holda xulosa chiqarib biz uning so'z yasaliş emas so'z (leksema) hosil bo'lish jarayoni ekanligini va leksikologiya bo'limida o'rganilishni maqsadga muvofiq ko'ramiz. Leksema maqomini esa hammasi ham ololmaydi. "Yangi so'z til tomonidan o'zlashtirilmaguncha; leksikaning aktiv zapasi fondiga qo'shilmaguncha... neologizm bo'lib qolaveradi" (Ўзбек тили лексикологияси, 1981, 155-бет). yoki tildan chiqib ketadi. "Bu kabi so'zlarning me'yoriylik darajasini aniqlashda ham tilimizdagi me'yoriylik holatlarini belgilashning mavjud qoidalariga tayanib ish ko'riladi. Basharti bu birliklar neologizm yoki okkazionalizm sifatida e'tirof etildimi, demak ular hali tilimizning haqiqiy lug'at birligiga aylanib ketmagan. Faqatgina o'zlari qo'llanilayotgan matnda narsa va tushunchani aniqroq, to'laroq, balki obrazliroq ifoda etish hamda boshqa badiiy-estetik maqsadlarni ko'zda tutib qo'llanilgan. Ularning adabiy tilimizda me'yor holatiga kelishi uchun ma'lum vaqt va xalqning iste'molda qo'llay boshlashi bilan bog'liq bo'lgan e'tirofi lozim bo'ladi." (Маматов А. Окказионал сўзлар ва тил нормаси, 1990, 68-бет). Jarayon **ong** > **nutq** > **lison** ketma ketligida yuz beradi.

Tushuncha > [*nominatsiya* ≤ *leksikalizatsiya/leksemalashuv*] > *leksema* = til birligi

Nominatsiya jarayoni esa 1) so'z birikmasining so'zga aylanishi, 2) so'zga so'z va qo'shimcha qo'shilishi, 3) tarixiy va sheva so'zlar asosida, 4) til ichki imkoniyatlaridan o'zlashma tarkibli shaklan va mazmunan yangi so'z yasalishi, 5) o'zlashma so'zlar vositasida amalga oshadi.

Umuman aytganda, lison bu ong va tilning birlashuvi. Ba'zi so'zlarning avval ongda tushunchasi hosil bo'ladi va nomlash jarayoni o'z til elementlari asosida yuz beradi. Ba'zi so'zlar esa dastlab tilda namoyon bo'ladi, keyin tushunchasi shakllanadi. Ular nomi bilan tilimizga o'zlashadi. Qachonki, neologizmlar ong va tilda omuxtalasha olsa leksemaga aylanadi. Ungacha esa leksemalashuv yoki lisoniylashuv yo'lida bo'ladi. Chunki ma'lum xalq tilining leksemalaridan iborat

lugʻatlarda nafaqat jamiyat holati, balki millatning ongi va tafakkur holati ham aks ettirilishi muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar

Ҳожиёв А. (1989). *Ўзбек тили сўз ясашиши*. Ўқитувчи.

Неъматов Ҳ. (2007). *Сўз ясаши қолити, ясалган ва ясама сўзлар хусусида*. Ўзбек тили ва адабиёти, № 1.

Mengliev B. (2018). *Hozirgi o'zbek tili*. Tafakkur bo'stoni.

Смирницкий А.И. (1957). *Лексикология английского языка*.

Ўзбек тили лексикологияси. (1981). Fan.

Холмухамедов Б.Ф. (2020). *Ўзбек тилида лексемалашув*. Фил...фан... бўйича фалсафа доктори дис.

Маматов А. (1990). *Окказионал сўзлар ва тил нормаси / “Ўзбек нутқи маданиятининг долзарб муаммолари” тўплами*.

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi floristik frazeologizmlarning (o'simlik nomlari asosida shakllangan birikmalar) tarixiy taraqqiyot yo'nalishlari tizimli tahlil qilinadi. Maqolada klassik adabiyotdan tortib XX–XXI asr matbuoti va raqamli kommunikatsiyagacha bo'lgan davrda bunday birliklarning semantik, struktur va pragmatik o'zgarishlarini aniqlash hamda ularning barqarorlik/yangilanish mexanizmlarini ko'rsatishga harakat qilinadi. Metodika korpusga asoslangan yondashuv, leksik-semantik teglash, ijtimoiy-tarixiy kontekstualizatsiya va qiyosiy madaniy-lingvistik tahlilni birlashtiradi. Natijalar misolida “gulday/guldek”, “bargdek titramoq”, “xazon bo'lish”, “tikanli gap” kabi birliklarning ma'no ko'lami kengayishi, uslubiy qatlamlar bo'yicha migratsiyasi, shuningdek, tarjima-ta'sir (kalka, o'zlashma) omillari namoyon bo'ladi. Tadqiqot floronimlarning ramziy kapitali, konseptual maydoni va kollektiv ongdagi estetik-aksial funksiyalari qayta talqin qilinishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, floronim, diakroniya, semantik siljish, metafora, ramz, kalka, o'zlashma, korpus lingvistika, normativlashuv, uslub, kollokatsiya, distributsiya.

Diachronic Evolution of Floristic Phraseologisms

Abstract

This article investigates the diachronic development of Uzbek floristic phraseologisms—fixed expressions that contain plant names—across three historical layers: classical literature, the 20th century press and fiction, and contemporary digital discourse. Our aims are to trace semantic shifts (amelioration, pejoration, and broadening), structural re-patterning, and pragmatic recontextualization of these idioms, and to model their mechanisms of stability and innovation. Methodologically, we combine corpus-based retrieval, lemma-level floronym tagging, distributional profiling, and sociohistorical contextualization, supplemented by cross-cultural comparison. Qualitative analyses of items such as “gulday/guldek,” “bargdek titramoq,” “xazon bo'lish,” and “tikanli gap” show genre-sensitive changes, register migration, and contact-induced calques. The study highlights the symbolic capital of floronyms and evolving conceptual fields.

* O'zbekiston Milliy universiteti doktoranti, feruza_khazratkulovaa@mail.ru

Keywords: phraseologism; floronym; diachrony; semantic shift; metaphor; symbolism; calque; borrowing; corpus linguistics; standardization; register; collocation.

Frazeologik birliklar til tizimining barqarorlik va o'zgaruvchanlikni bir vaqtda mujassam etuvchi qatlamidir. O'simlik nomlari — milliy estetik va ma'naviy tajribaning qudratli ramzlari — qadimiy poetik an'analardan tortib bugungi ommabop diskursgacha izchil qo'llanib keladi. Shuning uchun floristik frazeologizmlar diaxroniyasi (zamonga ko'ra rivojlanishi) nafaqat til tarixi, balki konseptual metafora, madaniy semantika va kommunikativ pragmatika uchun ham muhim manba hisoblanadi. Maqolaning dolzarbligi uch omil bilan belgilanadi: klassik matnlardagi g'oyat serma'no floronimlar (masalan, lola, rayhon, barg, daraxt) yangi davr matnlarida boshqa funksional qatlamlarga ko'chib, yangi konnotatsiyalar olmoqda; tarjima va global mediata'sir natijasida kalkalash, o'zlashmalar orqali yangi birikmalar paydo bo'lmoqda; raqamli korpuslar yordamida tez-tezlik, kollokatsion profil va distributsiya dinamikasini miqdoriy o'lchash imkoniyati mavjud. Tadqiqotning maqsadi floristik frazeologizmlarning semantika, struktura va uslubiy-funksional o'zgarishlarini davrlar kesimida xaritalashni o'z ichiga oladi; vazifalari: floronim asosidagi frazeologik birliklarni aniqlash va tipologiyalash; ularning tez-tezligini, janrlar bo'yicha tarqalishini va kollokatsion hamrohlari dinamikasini o'lchash; madaniy ramziylikdagi transformatsiyalarni izohlash. Nazariy tayanch sifatida frazeologiya (Kunin, 1986; Moon, 1998), konseptual metafora (Lakoff & Johnson, 1980; Kövecses, 2010) va madaniy lingvistika (Sharifian, 2017) ishlanmalari hamda korpus lingvistikasi (Sinclair, 1991) yondashuvlari qabul qilindi. Paremiologik (maqol-matallar) qatlam bilan kesishuvlar Mieder (2004) talqinlari asosida belgilandi.

Frazeologiya nazariyasida barqaror birikmalarning tasnifi va o'zgarish mexanizmlari A. V. Kunin hamda R. Moon asarlarida chuqur yoritilgan: barqaror komponent, semantik yaxlitlik, modallik va uslubiy markerlar diaxron sifatida ham izohlanadi (Kunin, 1986; Moon, 1998). Konseptual metafora nazariyasi floronimlarning kuchli ramziy potentsialiga e'tibor qaratadi: "O'SIMLIK" manba domeni orqali inson holati, vaqt, munosabatlar kabi nishon domenlar metaforizatsiya qilinadi (Lakoff & Johnson, 1980; Kövecses, 2010). Paremiologiya doirasida o'simlik obrazlari maqol va hikmatlarda ko'p kuzatiladi; ular frazeologik fond bilan semantik va funksional jihatdan chirmashib ketadi (Mieder, 2004). Korpus yondashuvi esa konstruksiyalarni tez-tezlik, kollokatsiya va dispersiya ko'rsatkichlari bilan qayta tavsiflash imkonini yaratadi (Sinclair, 1991). O'zbek tilidagi izohli va frazeologik lug'atlar floristik birliklarning normativ yozuvini belgilab, ularning